VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2023- yilning yanvar-martida tashqi savdo aylanmasi 128,6 mln. AQSH dollarni tashkil etdi, shundan 85,8 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 42,8 mln. AQSH dollarini - import operatsiyalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 43,0 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-martida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSH dollari)*

	yanvar-mart		*2022- yilning yanvar- martiga nisbatan foiz hisobida*
	2022- y.	*2023- y.*	
Tashqi savdo aylanmasi	**134,5**	**128,6**	**95,6**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	32,3	37,7	116,8
boshqa davlatlar	102,2	90,9	88,9
Eksport	**68,9**	**85,8**	**124,4**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	16,9	23,5	139,1
boshqa davlatlar	52,0	62,3	119,7
Import	**65,6**	**42,8**	**65,3**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	15,4	14,2	92,4
boshqa davlatlar	50,2	28,6	56,9

2023- yilning yanvar-martida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati eksport-importi tarkibi

	Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi				*2022- yilga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil		*2023- yil*		
	mln. AQSH doll.	*jamidagi ulushi, %*	*mln. AQSH doll.*	*jamidagi ulushi, %*	
Eksport tarkibi	**68,9**	**100,0**	**85,8**	**100,0**	**124,4**
paxta tolasi	-	-	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	10,0	14,6	12,7	14,8	126,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	0,5	0,7	0,3	0,3	60,8
qora va rangli metallar	0,5	0,8	-	-	-
energiya manbalari va neft mahsulotlari	5,4	7,8	9,3	10,9	174,8
mashina va uskunalar	0,6	0,9	0,8	0,9	118,0
xizmatlar	1,2	1,6	1,1	1,3	91,3
boshqalar	50,7	73,6	61,6	71,8	121,4

davomi

	Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi				2022-yilga nisbatan foiz hisobida
	2022- yil		2023- yil		
	mln. AQSH doll.	jamidagi ulushi, %	mln. AQSH doll.	jamidagi ulushi, %	
Import tarkibi	**65,6**	**100,0**	**42,8**	**100,0**	**65,3**
oziq-ovqat mahsulotlari	4,6	7,0	4,3	10,0	92,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	7,7	11,7	7,3	17,2	95,6
energiya manbalari va neft mahsulotlari	2,5	3,9	2,9	6,8	116,2
qora va rangli metallar	2,7	4,1	1,9	4,4	69,0
mashina va uskunalar	42,4	64,6	22,4	52,3	52,8
xizmatlar	-	-	0,3	0,7	-
boshqalar	5,7	8,7	3,7	8,6	65,3

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar- mart oylari, mln. AQSh dollari)

Turkiya

TSA – 30,2
Eksport – 25,4
Import – 4,8

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 20,9
Eksport – 15,0
Import – 5,9



XXR

TSA – 13,1
Eksport – 2,0
Import – 11,1

BAA

TSA – 9,5
Eksport – 9,5
Import – 0,0

Qozog‘iston

TSA – 8,5
Eksport – 2,4
Import – 6,1

Polsha

TSA – 5,8
Eksport – 5,6
Import – 0,2

Pokiston

TSA – 5,0
Eksport – 4,2
Import – 0,8

Qirg‘iz Respublikasi

TSA – 4,1
Eksport – 3,0
Import – 1,1

Hindiston

TSA – 3,8
Eksport – 3,2
Import – 0,6

Misr

TSA – 3,4
Eksport – 3,4
Import – 0,0

Qashqadaryo viloyati, jahonning 55 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (23,5 %), Rossiya Federatsiyasida (16,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,2 %), BAA (7,4 %), Qozog‘istonda (6,6 %), Polsha (4,5 %), Pokiston (3,9 %), Qirg‘iz Respublikasi (3,2 %), Hindiston (3,0 %) va Misr (2,6 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSAda Qirg‘iz Respublikasi, Qozog‘iston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-mart oylari, mln. AQSH dollari)

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 13 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (30,2 mln. AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (20,9 mln. AQSH dollari), BAA (9,5 mln. AQSH dollari), Polsha (5,8 mln. AQSH dollari), Pokiston (5,0 mln. AQSH dollari), Qirg‘iz Respublikasi (4,1 mln. AQSH dollari), Hindiston (3,8 mln. AQSH dollari), va Misr (3,4 mln. AQSH dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 7 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan foizda



Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan foizda



2023- yilning yanvar-mart oylarida jami 98,6 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari 8441,4 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2022- yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga kupaydi.

Shuningdek, 18,7 ming tonna Dukkakli sabzavotlar 3400,1 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga ko‘paygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (31,8 %) Rossiya Federatsiyasi (27,8 %), Qozog‘iston (18,6 %) va Avg‘oniston (10,9 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajriba bilan ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.